



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **CHET TILLARINI O'RGANISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK TAHLILI**

**A'zamova Sarvinoz Aftandil qizi**  
Navoiy davlat universiteti, o'qituvchi, dotsent

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada chet tilini o'rganishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning chet tillarini o'rganish motivlari, muhim deb hisoblaydigan til ko'nikmalari, ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi tashkiliy omillar, afzal ko'riladigan o'quv vositalari hamda o'qituvchining roli o'rganildi. Natijalar o'quvchilar uchun muloqot qilish imkoniyati, nutqni tushunish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish, qiziqarli tashkil etilgan darslar hamda zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati va o'quvchilarni rag'batlantira olish qobiliyati chet tilini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi.

**Kalit so'zlar:** chet tili, motivatsiya, til kompetensiyasi, kommunikativ ko'nikmalar, o'quv vositalari, o'qituvchi roli, ta'lim jarayoni, o'quvchilar.

## **ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**Аъзамова Сарвиноз Афтандил кизи**  
Навоийский государственный университет, преподаватель, доцент

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на изучение иностранных языков. В ходе исследования были проанализированы мотивы изучения иностранных языков учащимися, наиболее значимые языковые навыки, организационные факторы образовательного процесса, предпочтительные средства обучения, а также роль учителя. Результаты показали, что для учащихся особое значение имеют возможность общения, развитие навыков говорения и понимания речи, интересная организация занятий и использование современных образовательных средств. Также установлено, что педагогическое мастерство учителя и его способность мотивировать обучающихся являются важными условиями успешного овладения иностранным языком.

**Ключевые слова:** иностранный язык, мотивация, языковая компетенция, коммуникативные навыки, средства обучения, роль учителя, образовательный процесс, учащиеся.

## **A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCING FOREIGN LANGUAGE LEARNING**

**A'zamova Sarvinoz Aftandil qizi**  
Navoi State University, Lecturer, Associate Professor

### **Abstract**

This article examines the factors influencing foreign language learning. The study analysed students' motivations for learning foreign languages, the language skills they consider most important, organisational factors affecting the educational process, preferred learning resources, and the role of the teacher. The findings revealed that opportunities for communication, the development of speaking and listening comprehension skills, engaging lessons, and the use of modern educational resources are of particular importance to students. The study also found that teachers' pedagogical competence and their ability to motivate learners are key factors in successful foreign language acquisition.

**Keywords:** foreign language, motivation, language competence, communicative skills, learning resources, teacher's role, educational process, students.

Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarini o'rganish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xorijiy tillarni puxta egallash shaxsning ta'lim olish, kasbiy faoliyat yuritish, xalqaro hamkorlikda ishtirok etish hamda madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli o'quvchilarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini shakllantiruvchi omillarni aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Chet tilini o'rganish samaradorligi nafaqat o'quvchining individual xususiyatlariga, balki o'qitish metodlari, o'quv muhiti, o'qituvchining kasbiy mahorati, darslarning tashkil etilishi hamda foydalanilayotgan ta'lim vositalariga ham bog'liqdir. Ayniqsa, zamonaviy ta'limda kommunikativ yondashuvning rivojlanishi o'quvchilarning gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini yanada kuchaytirmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o'quvchilarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan munosabatini, motivatsiyasini hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari chet tili ta'limini takomillashtirish, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos metod va vositalarni tanlash hamda o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Hozirgi sharoitda chet tillarini o'rganish jarayoni sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, shu bilan birga o'qishga bo'lgan motivatsiya ham o'zgarib bormoqda. Motivatsiya shu qadar murakkab jarayonki, bir necha yil oldin o'quvchilarni chet tilini o'rganishga undagan omillar bugungi kunda katta ahamiyatga ega bo'lmay qolgan, chunki mutlaqo yangi rag'batlantiruvchi omillar paydo bo'lgan. Ushbu tushunchaning ko'p qirrali ekanligini va u ta'lim jarayonining ajralmas qismi ekanligini hisobga olib, mazkur maqolaning maqsadi **8–9-sinf** o'quvchilari nuqtayi nazaridan chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiyaga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash, nazariya va amaliyotni taqqoslash hamda keyingi tadqiqotlar va ta'lim jarayonini takomillashtirishda foydalanish mumkin bo'lgan umumiy shart-sharoitlarni belgilashdan iborat.

**Tadqiqot ishtirokchilari va metodlari.** Mazkur tadqiqotning asosiy usuli sifatida so'rovnoma metodi tanlandi. Chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiya bilan bog'liq savollarga javob olish maqsadida Navoiy shahridagi 16-maktabning 65 nafar respondentlari — 8–9-sinf o'quvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqot ingliz tilini o'rganayotgan guruhlar orasida olib borildi. Tadqiqot jarayonida o'qituvchilar tashkiliy yordam ko'rsatib, tadqiqotni samarali tashkil etishga ko'maklashdilar.

**Tadqiqot vositalari.** Tadqiqot savollarini o'z ichiga olgan anketa respondentlarning fikrlarini taqqoslash imkonini berdi. Sakkizta yopiq savoldan iborat bo'lgan so'rovnoma respondentlarga o'z javob variantlarini ham kiritish imkoniyatini yaratdi. Anketa savollari respondentlarni chet tillarini o'rganishga undovchi motivlar hamda ular eng muhim deb hisoblaydigan ko'nikmalarni aniqlashga qaratilgan edi. Tadqiqot natijalari gistogrammalar ko'rinishida taqdim etildi. Olingan ma'lumotlardan o'rta ta'lim bosqichida chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiyaga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash hamda xulosalar chiqarishda foydalanildi.

**Nazariy asoslar.** Chet tilini o'qitish metodikasida motivatsiya tushunchasi yetakchi o'rin egallaydi va hozirgi kunda ham muhim tadqiqot obyekti bo'lib qolmoqda. S. L. Bukovskiy motivatsiyani "maqsadga erishishga intilish" deb ta'riflaydi [5, 159-b.]. Bu esa uning ham o'qituvchi, ham o'quvchi faoliyatidagi hal qiluvchi ahamiyatini ko'rsatadi.

I. M. Osmolovskaya fikriga ko'ra, motivatsiya — bu inson xulq-atvorini muayyan natijaga olib keladigan tarzda boshqaruvchi omillar majmuasidir [10, 113-b.].

O'z navbatida, L. V. Fadeeva ta'kidlashicha, motivatsiyaning yuqori bo'lishi ko'proq sa'y-harakat va diqqatni talab qiladi, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi [12, 88-b.]. Ko'plab tadqiqotlar motivatsiya va o'quv natijalari o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi va bu barcha fanlarga taalluqlidir [13, 38–63-b.]. Ayniqsa, zamonaviy glottodidaktik vaziyatda o'quvchilar motivlarining ikki turini farqlash zarur: ichki motivatsiya va tashqi motivatsiya [7, 15-b.].

Ichki bilishga yo'naltirilgan motivatsiya chet tilini o'rganishdan zavq olish bilan bog'liq bo'lib, yuqori natijalarga erishish nuqtayi nazaridan istiqbolli hisoblanadi. Boshqa mamlakat madaniyatini o'rganishga qiziqqan o'quvchi dars jarayonida faolroq bo'ladi, nafaqat o'qituvchi tavsiya qilgan topshiriqlarni, balki mustaqil ravishda ham qo'shimcha mashqlarni bajaradi.

Tashqi motivatsiya esa chet tilini o'rganishni muayyan manfaatlarga erishish, ayniqsa kasbiy faoliyat bilan bog'liq imkoniyatlar bilan bog'laydi. Motivatsiya mavjud bo'lmagan hollarda uning o'rni majburlash egallaydi [14, 427-b.].

Shu sababli bolalarning motivatsiyasi doimiy emasligi va turli omillar ta'sirida o'zgarib turishi tabiiy holatdir. O'quvchilar darsning turli bosqichlarida, turli topshiriqlarni bajarishda yoki ta'limning turli davrlarida turlicha motivatsiyaga ega bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, mavjud motivatsiya ham vaqt o'tishi bilan yo'qolishi mumkin. Shu bois o'qituvchining motivatsion faoliyati faqat ayrim epizodik harakatlar bilan cheklanmasligi kerak. Talabalar motivatsiyasini shakllantirish, qo'llab-quvvatlash va nazorat qilish uzluksiz jarayon hisoblanadi [9, 180-b.].

Zamonaviy maktab amaliyotida bunday holatlar tez-tez uchraydi. Shu bilan birga, pedagogik

tajriba shuni ko'rsatadiki, dastlab o'zini majburan o'qiyotgandek his qilgan o'quvchi ham keyinchalik chet tillarini bilishning amaliy foydasini, ayniqsa kasbiy faoliyatida, anglab yetishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchining butun faoliyatini faqat muvaffaqiyatga erishishga qaratish esa uzoq muddatli natija bermasligi mumkin. Agar chet tilini o'rganish faqat yuqori baho olish bilan bog'liq bo'lsa, kutilgan natijaga erishilmaganda motivatsiya keskin pasayishi mumkin [11, 146-b.].

Dorniey modeliga ko'ra, motivatsiya ta'lim jarayonining uch bosqichi bilan bog'liq: harakat boshlanishidan oldingi bosqich, harakat davom etayotgan bosqich va harakat yakunlanganidan keyingi bosqich. O'quvchi ta'limni boshlashdan oldin tilni o'rganish o'zi uchun qanchalik jozibador ekanligini baholaydi. Bu baholash tilga bo'lgan hissiy munosabat, o'quv mazmunining qiziqarliligi hamda o'rganish natijasida olinadigan amaliy afzalliklar orqali amalga oshiriladi [6, 117-b.].

T. S. Shishkina motivatsiyaning eng muhim jihatlaridan biri sifatida ijobiy hissiyotlarni uyg'otish, ayniqsa qiziqish va qiziquvchanlikni rivojlantirishni ko'rsatadi [16, 99-b.].

M. A. Baranovanning fikricha, qiziqishning ortishi o'quvchini yanada samarali faoliyatga undaydi va uning intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradi [3, 167-b.].

Qiziquvchanlikni shakllantirish hamda o'zining til ko'nikmalaridan ichki qoniqish hissini hosil qilish murakkab jarayon bo'lsa-da, to'g'ri tashkil etilganda u barqaror va uzoq muddatli natija beradi [1, 53-b.]. Chet tilini o'rganish uzoq davom etadigan jarayon bo'lgani sababli, u ham o'quvchi, ham o'qituvchidan faol pozitsiyani talab qiladi.

O'qituvchining jarayonga faol jalb etilishi va o'quvchilarning darslardagi faol ishtiroki aksariyat hollarda muvaffaqiyatli natijalarga olib keladi [12, 143-b.]. O'qituvchi o'quvchilarga ularning rivojlanishi va yutuqlariga befarq emasligini ko'rsata olishi muhimdir. Bolalar o'qituvchining ular bilan hamkorlik qilishga tayyorligini ijobiy qabul qiladilar. Bunday hamkorlik maktabdagi individual maslahatlar, shuningdek, internet orqali elektron pochta, Skype yoki ijtimoiy tarmoqlar vositasidagi muloqot shaklida amalga oshirilishi mumkin [2, 227-b.].

Ta'limga bo'lgan motivatsiyani qo'llab-quvvatlovchi asosiy shartlardan yana biri sinfda qulay va do'stona psixologik muhit yaratish hisoblanadi. Bunday muhit o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni, o'zaro yordamni va jamoaviy ishlashni rivojlantiradi [4, 533-b.]. Shuningdek, o'quvchilarni to'g'ri va muntazam mehnat qilish orqali ta'lim jarayonida ijobiy natijalarga erishish mumkinligiga ishonitirish ham motivatsiyani mustahkamlaydi. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarda o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim. Bu esa ularda sarflangan sa'y-harakatlar va mehnat albatta samara berishi haqidagi ishonchni shakllantiradi [8, 1-b.].

O'tkazilgan nazariy tahlil asosida maktab amaliyotida namoyon bo'ladigan motivatsiyaning asosiy omillarini quyidagicha ajratish mumkin:

1. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati. Mazkur omil o'quvchining ijtimoiy va madaniy dunyoqarashini kengaytirish, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda kelajakdagi yangi imkoniyatlarni ochib berish bilan izohlanadi.

2. Qiziqarli va faol darslarni tashkil etish. Bu omil o'quvchilarning fan va mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini yaratish hamda o'quvchilar o'rtasidagi faol muloqotni ta'minlash orqali namoyon bo'ladi.

3. Turli xil o'quv materiallaridan foydalanish. Chet tillarini o'rganish jarayonida rang-barang o'quv materiallaridan foydalanish o'quvchilarning individual qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish, turli o'qitish uslublarini qo'llash hamda darslarni yanada mazmunli va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi.


4. Til sohiblari bilan muloqot va amaliyot olib borish. Ushbu omil o'quvchilarning tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash tajribasini shakllantirish bilan tavsiflanadi. Bunday tajriba nafaqat tilni chuqurroq o'zlashtirishga, balki o'rganilayotgan til vakillarining madaniyati, qadriyatlarini va turmush tarzini yaxshiroq anglashga ham yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlarni inobatga olgan holda, ularni amaliy natijalar bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Shu sababli keyingi bosqichda nazariy qarashlar hamda o'tkazilgan so'rovnoma natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va moslik darajasi tahlil qilinadi.

**Tadqiqot natijalari.** So'rovnomaning birinchi savolida respondentlardan chet tillarini o'rganishni boshlashlariga sabab bo'lgan subyektiv omillarni ko'rsatish so'ralgan. Ishtirokchilar o'z javoblarida chet tilini o'rganishga undovchi asosiy motivlarni belgilaganlar. Respondentlarga berilgan variantlar orasidan ko'pi bilan uchta javobni tanlash imkoniyati yaratilgan.

1-diagrammada tadqiqot ishtirokchilarining ushbu savol bo'yicha bildirgan fikrlari va tanlovlari

aks ettirilgan. Diagramma natijalari o‘quvchilarni chet tillarini o‘rganishga undovchi eng muhim omillarni aniqlash hamda ularning motivatsion yo‘nalishlarini tahlil qilish imkonini beradi.




**1-rasm. Respondentlarning fikriga ko‘ra chet tillarini o‘rganishning subyektiv sabablari.**

Diagrammada keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, maktab o‘quvchilari uchun chet tillarini o‘rganishning eng muhim sababi — muloqot qilish imkoniyatidir. Ushbu javobni yuqori sinf o‘quvchilarining 89,72 foizi tanlagan. Bundan tashqari, o‘quvchilar uchun chet tilida taqdim etilgan ma’lumotlarni tushuna olish ham muhim hisoblanadi (60,83%).

So‘rov ishtirokchilarining 47,48 foizi chet tillarini bilish ishga joylashishni osonlashtiradi, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, yuqori sinf o‘quvchilarining 34,14 foizi chet tillarini o‘rganishni yoqtirgani sababli ushbu fan bilan shug‘ullanadi.

Bundan tashqari, respondentlarning atigi 24,29 foizi bitiruv imtihoni va attestat olishning muhimligini ta’kidlagan.

Ta’lim olish motivatsiyasi to‘rtta til kompetensiyasini egallash bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, anketa savollarining ikkinchisida respondentlardan qaysi til ko‘nikmasi ular uchun eng muhim ekanligini ko‘rsatish so‘ralgan (2-rasm).



**2-rasm. Respondentlarning fikriga ko‘ra chet tilini o‘rganishdagi eng muhim ko‘nikmalar.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ikki muhim til ko'nikmasini alohida ta'kidlaganlar: gapirish va nutqni tushunish. Jumladan, respondentlarning 93,87 foizi og'zaki nutq ko'nikmalarining muhimligini, 93,65 foizi esa boshqalarning fikr va mulohazalarini tushunish ko'nikmasining ahamiyatini qayd etgan.


O'qish ko'nikmasi esa 10–11-sinf o'quvchilari fikriga ko'ra, chet tilini o'rganishdagi eng muhim ko'nikmalar orasida uchinchi o'rinni egallaydi. So'rovda qatnashganlarning 36,98 foizi ushbu ko'nikmani asosiyalaridan biri sifatida baholagan.

Shu bilan birga, yozuv va imlo ko'nikmalari mazkur ro'yxatda eng kam ahamiyat berilgan ko'nikma bo'lib chiqdi, chunki respondentlarning atigi 29,76 foizi uning muhimligini ta'kidlagan.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy glottodidaktika (til o'qitish metodikasi) o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Bu holat o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan ham tasdiqlanadi. O'quvchilarning bunday kutishlari tufayli o'qituvchi ularning til ehtiyojlariga moslashtirilgan matnlar va tadqiqot materiallaridan foydalanib, lug'at boyligini kengaytirishi hamda gapirish va nutqni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiya ko'pincha o'quvchilar ta'sir o'tkaza olmaydigan tashkiliy omillar bilan ham bog'liq bo'ladi. Bunday omillarga haftalik chet tili darslari soni, tayinlangan o'qituvchi, darslarni o'tkazish usuli, mashg'ulotlar o'tkaziladigan xona va baholash mezonlari kiradi.

Shu munosabat bilan, so'rovnomaning uchinchi savoli o'quvchilarning fikricha ta'lim olish motivatsiyasiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, respondentlar uchtagacha javob variantini tanlash imkoniyatiga ega bo'lganlar (3-rasm).



### 3-rasm. Chet tilini o'rganishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy omillar.

Taqdim etilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, birinchi o'rinni darslarni qiziqarli tarzda tashkil etish omili egallagan bo'lib, buni o'quvchilarning 91,90 foizi qayd etgan. O'qituvchining faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ushbu omilga bunday yuqori e'tibor qaratilishi zamonaviy o'smirlar o'qituvchidan katta umidlar kutayotganini ko'rsatadi. O'qituvchi esa buni anglagan holda, darslarni qiziqarli va mazmunli tashkil etish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishi lozim.

Respondentlar tomonidan ko'rsatilgan ikkinchi muhim omil haftasiga o'tiladigan darslar soni bo'lib, bunga so'rov ishtirokchilarining 44,64 foizi e'tibor qaratgan. O'quvchilarning fikricha, haftalik mashg'ulotlar sonining ko'pligi chet tilini o'rganishga rag'batlantiruvchi muhim omillardan biridir. Chet tili darslarining ko'p bo'lishi o'qituvchiga qo'shimcha til mashqlarini taklif etish imkonini ham beradi.


Ayrim o'quvchilar tashkiliy omillardan yana biri sifatida qiziqarli darslik tanlanishini ko'rsatganlar. Bu fikrni respondentlarning 39,82 foizi qo'llab-quvvatlagan. Keyingi o'rinlarni aniq baholash mezonlari va yuqori sinf o'quvchilari tomonidan qayd etilgan boshqa omillar egallaydi.

Bu yerda respondentlar tomonidan keltirilgan boshqa omillarga quyidagilarni misol qilish

mumkin:

- individual (yakka tartibdagi) ishlash;
- til guruhlarida o‘quvchilar sonining kamligi;
- o‘rganiladigan mavzularni tanlash imkoniyati.

So‘rovnomaning to‘rtinchi savolida respondentlar o‘zlari afzal ko‘radigan o‘quv vositalari va ta’lim resurslari haqida fikr bildirganlar (4-rasm).



**4-rasm. Respondentlarning fikriga ko‘ra eng jozibador (qiziqarli) o‘quv kontenti.**


4-rasmda keltirilgan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning eng sevimli o‘quv vositasi filmlar hisoblanadi. Bu variantni yuqori sinf o‘quvchilarining 68,49 foizi tanlagan. Ikkinchi o‘rinni qo‘shiqar egallagan bo‘lib, ularga respondentlarning 54,49 foizi ustunlik bergan. Uchinchi o‘rinda esa o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan qo‘shimcha materiallar joylashgan bo‘lib, bu variantni 39,82 foiz ishtirokchi tanlagan.

Keyingi o‘rinlarni quyidagi o‘quv vositalari egallaydi:

- multimedia taqdimotlari – 28,45%;
- veb-saytlar – 27,57%;
- darsliklar – 26,04%;
- illyustratsiyalar – 17,94%;
- matbuot maqolalari – 8,10%.

Ko‘plab o‘qituvchilarning til materiallarini tayyorlashga sarflayotgan sa’y-harakatlarini alohida ta’kidlash lozim. Ayrim pedagoglar uchun qo‘shiqar va filmlardan olingan lavhalar nafaqat qiziqarli material, balki lug‘at boyligini oshirish hamda estetik didni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali o‘quv vositasi hisoblanadi.

O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ham til birliklarini tanlashga, ham materialning badiiy va estetik qimmatiga e’tibor qaratganida, uning mehnat yuklamasi ortadi. Biroq bu sa’y-harakatlar o‘z samarasini beradi, chunki bunday yondashuv natijasida chet tili nafaqat muloqot vositasiga, balki yuqori sinf o‘quvchilarining dunyoqarashi, qarashlari va fikrlarini shakllantirish vositasiga ham aylanadi.



**5-rasm. Respondentlarning fikriga ko'ra chet tilini o'qitish jarayonida o'qituvchining roli.**

So'rov natijalarini tahlil qilganda, respondentlarning 84,03 foizi o'qituvchining asosiy vazifasi darslarni qiziqarli tarzda tashkil etishdan iborat, deb hisoblashini ko'rish mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning 75,93 foizi o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri yangi so'zlar va grammatik mavzularni tushuntirish ekanligini ta'kidlagan.

Respondentlarning fikriga ko'ra, o'quvchilarni chet tillarini o'rganishga rag'batlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu javobni so'rov ishtirokchilarining 60,18 foizi tanlagan. Shu bilan birga, o'quv qo'llanmalarini tayyorlash va imtihonlarga tayyorlashda yordam berish o'qituvchining nisbatan kamroq muhim vazifalari sifatida baholangan bo'lib, buni respondentlarning 29,54 foizi qayd etgan.

Bunday nisbatan past ko'rsatkichlar ma'lum darajada hayrat uyg'otishi mumkin. Ushbu holatning aniq sababini topish oson emas. Bir tomondan, bu tendensiya yaqin yillarda ham saqlanib qoladimi yoki faqat mazkur tadqiqot natijasimi, degan savol tug'iladi. Ikkinchi tomondan, o'quvchilar o'qituvchining faoliyati tabiatan imtihonlarga tayyorlashga qaratilgan, deb oldindan hisoblashlari ham mumkin.

Keltirilgan mulohazalar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar sezilarli darajada oshgan. Chunki respondentlar o'qituvchini bir vaqtning o'zida ham malakali mutaxassis, ham qiziqarli va samarali mashg'ulotlarni tashkil eta oladigan pedagog sifatida ko'rishni istaydilar.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar uchun chet tillarini o'rganishning asosiy motivi muloqot qilish va xorijiy tildagi ma'lumotlarni tushunish imkoniyatidir. Respondentlarning aksariyati gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini eng muhim til kompetensiyalari sifatida baholagan. Bu esa chet tili ta'limida kommunikativ yondashuvning dolzarbligini tasdiqlaydi. Shuningdek, darslarning qiziqarli tashkil etilishi, haftalik mashg'ulotlar sonining yetarliligi va zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Filmlar, qo'shiqlar va o'qituvchi tomonidan tayyorlangan qo'shimcha materiallar eng samarali o'quv vositalari sifatida e'tirof etildi. Tadqiqot natijalari o'qituvchining roli nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarni rag'batlantirish, darslarni qiziqarli tashkil etish va samarali kommunikativ muhit yaratishdan iborat ekanligini ko'rsatdi. Demak, chet tilini o'rganish samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish, zamonaviy ta'lim resurslarini keng joriy etish hamda o'quvchilarning kommunikativ faolligini qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ариян М.А. Педагогические технологии обучения иностранным языкам в школе. – Москва: Флинта, 2021. – 112 с.
2. Асташкина М.А. Проблемы поддержания мотивации учащихся средней школы в изучении иностранного языка // Трибуна ученого. – 2020. – № 4. – С. 227–231.
3. Баранова М.А. Формирование у старшеклассников мотивации изучения иностранного языка в

- процессе профессионального самоопределения // Гуманитарные науки на службе развития сельского хозяйства и АПК. – 2021. – С. 167–171.
4. Бирюкова И.А., Корягина А.В. Повышение мотивации школьников к изучению иностранного языка // Актуальные вопросы лингвистики и лингводидактики в контексте межкультурной коммуникации. – 2023. – С. 533–538.
  5. Буковский С.Л. Основы методики обучения иностранным языкам в схемах и таблицах. Иллюстративно-графический курс. – Москва: Флинта, 2020. – 238 с.
  6. Готлиб Д.Л. Проблема снижения мотивации при овладении иностранным языком школьниками и пути ее решения // Мир науки. Педагогика и психология. – 2018. – Т. 6. – № 2. – С. 16.
  7. Локтина К.С. Способы формирования мотивации к изучению иностранного языка в средней школе на разных этапах обучения // ББК ТЗ Г945. – 2022. – С. 15.
  8. Люа М. Мотивационные профили изучающих несколько иностранных языков: взгляд на теорию самоопределения // Система. – 2022. – Т. 106. – С. 1–17.
  9. Носаков И.В. Особенности эффективного обучения иностранным языкам учащихся разных возрастных групп // Акмеология профессионального образования: материалы XV Международной научно-практической конференции. – Екатеринбург, 13–14 марта 2019 г. – Екатеринбург: Российский государственный профессионально-педагогический университет, 2019. – С. 180–183.
  10. Осмоловская И.М. Дидактика: учебное пособие. – Москва: ФГБНУ «Институт стратегии развития образования РАО», 2021. – 232 с.
  11. Ри Ш.Х. Психологические аспекты повышения мотивации учащихся при изучении иностранного языка // Тенденции развития науки и образования. – 2021. – № 75–3. – С. 146–149.
  12. Фадеева Л.В. Методика обучения иностранным языкам: от теории к практике: учебное пособие. – Москва: Флинта, 2021. – 224 с.
  13. Цаликова И.К., Пахотина С.В. Проблема мотивации изучения иностранных языков в международных исследованиях: систематический обзор // Образование и наука. – 2021. – Т. 23. – № 5. – С. 38–63.